



O'ZBEKISTONDA TRANSPORT OQIMINI TARTIBGA SOLISH. YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA TIRBANDLIKNI OLDINI OLISH

Gaffarov Maxamatzokir Toshtemirovich

Andijon Mashinasozlik instituti

"Transport loistikasi" kafedrası dotsenti

ARTICLE INFO

Received: 12th February 2023

Accepted: 21th February 2023

Online: 22th February 2023

KEY WORDS

Bojxona organi, yo'l harakati qoidalari, avtotransport vositasi, huquqbuzarlik, jarima, chegara bojxona posti, majburiyatnoma, diplomatik vakolatxona.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi yangi renessans davriga o'tishda butun jahon hamjamiyati bilan transport kommunikatsiyasini yo'lga qo'yishdagi huquqiy va me'yoriy hujjatlarini tartibga solinishida yo'l harakati qoidalarini buzgan xorijiy avtotransport vositalari haydovchilaridan jarimalarni undirish tartibi atroflicha yoritib berilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berib, inson manfaatlarini oliy darajaga ko'tardilar. O'zbekiston nafaqat qo'shni davlatlar bilan, dunyo davlatlari bilan ham, xamdo'stlik aloqalarini yangi yuksak pog'onalarga ko'tardilar va xalqaro turizmni rivojlantirishga keng yo'l ochib berdilar. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda transport logistikasini rivojlantirish xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasiga chegaradosh qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlaridan yurtimizga mexmonlarni kirib kelishlari kun sayin ortib bormoqda. Respublikamiz xududiga qo'shni davlatlardan, kelayotgan transport vositalarning soni ham ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 11 iyuldagi 3127-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli ijobiy ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan hozirgi kunda avtotransport vositalari uchun zamonaviy avtoturargohlarni tashkil etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va tirbandliklarni oldini olish asosiy vazifalardan biridir.

Respublikamiz xududiga kirib keladigan transport oqimini kamaytirish maqsadida shahar atrofida yirik avtoturargohlar barpo etish bo'yicha takliflar:

- Avtoturargohda shaxsiy avtomobillar va turistik avtobuslar uchun parkovka joylarini, avtomobillarga servis xizmat ko'rsatish va velosipedlarni prokatga berish shaxobchalarini, mexmonxona, oshxona va shunga o'xshash xizmatlarni tashkil etish.
- Shahar atrofida avtoturargohlarni yaratilishi xaydovchilar, mehmonlar, turistlar va Toshkent viloyatlaridan Toshkent shahriga har kuni shahsiy avtomobillarida ishga, o'qishga va boshqa



yumushlar bilan kelib ketadigan haydovchilar uchun qulayliklarni keltirib chiqarishi bilan birgalikda, shahar ichidagi transport vositalarining oqimini kamayishiga, tirbandliklarni va yo'l transport xodisalarini sodir bo'lish ehtimolini kamaytirishi bilan birgalikda shahar ichida parkovka joylarini qidirishga ehtiyojni kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 23 fevraldagi 139-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Avtotransport vositalari va shahar elektr transport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 31 maydagi 408-sonli qarori ijrosini ta'minlash kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida yiliga mingga yaqin insonlar Yo'l Transport Hodisalari (YTH) oqibatida hayotdan ko'z yummoqdalar. YTH sodir etilishining asosiy omillaridan biri bu, "Haydovchi-Piyoda" tizimi hisoblanib, barcha YTHlarning 80% dan ortig'ini tashkil etmoqda. YTHlarni paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish uchun "Avtomobil – Yo'l – Haydovchi – Piyoda - Muxit" tizimidagi asosiy bo'g'ini hisoblangan haydovchiga qaratish talab etiladi. Shunday ekan asosiy e'tiborni haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga qaratishimiz zarur.

Haydovchilarni tayyorlash avtomaktablari hozirgi kun talabiga to'liq javob beradimi? – yo'q albatta. Chunki, malakali haydovchilarni tayyorlash uchun chet el tajribalaridan foydalanib, yangicha o'qitish usullaridan foydalanish davri keldi. Hozirgi kunda 3-4 oy ichida malakali haydovchilarni tayyorlab bo'lmashligini vaqt ko'rsatib turibdi. Shu sababli avtomaktablarni tubdan isloh qilish vaqti keldi. Avtomaktablarni yakunlab haydovchilik guvohnomasini olganlar yilning bir faslida avtomobilni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Avtomobilni tuman tushgan vaqtda, sirpanchiq yo'llarda, dovonlarda, avtomagistallarda, ruxsat etilgan katta tezliklarda va shunga o'xshash sharoitlarida boshqarish malakasiga ega bo'lmayaptilar. Shulardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

"Yo'l harakatini xavfsizligini tashkil etish", "Avtomobillar ekspertizasi" va "Avtomobillarni sinash" mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-pedagogik mutaxassislarni tayyorlash;

Avtomaktablarga mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan pedagoglar va o'rgatuvchi ustalarni jalb etishni hamda xorijiy davlatlarda malakasini oshirishlarini tashkil etish;

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarni va o'qitish muddatini qayta ko'rib chiqish;

IIV YHXBB tasarrufida zamonaviy avtodrom, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va imtixonlar olishga mo'ljallangan yagona zamonaviy kompleksni barpo etish;

Yo'l harakati qoidalarini buzgan, haydovchilik guvohnomasidan ma'lum muddatga mahrum etilgan haydovchilarni qayta tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'zlari o'qigan avtomaktablarida malaka oshirishga jalb etishni tashkil etish;



Avtomaktablarni faoliyatini baholashning yangi, sifat reyting tizimini joriy etish. Buning uchun asosiy e'tiborni avtomaktabni tamomlab, haydovchilik guvoxnomasini olgan haydovchilar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar taxlilini e'tiborga olishga qaratish.

Birinci marotaba haydovchilik guvoxnomasini olgan haydovchilarning transport vositalariga "Tezlik cheklangan" taniqlik belgisini ma'lum muddatga o'rnatishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2015 yil 24 dekabrda 370-sonli qarori asosida 2016 yil 1 martdan kuchga kirgan YHQ larga qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar:

Birinci marotaba haydovchilik guvoxnomasini olgan va avtomobilni boshqarish huquqidan mahrum etilib, malakasini oshirib, imtihonlarni topshirib haydovchilik guvoxnomasini olgan haydovchilarning transport vositalariga "Tezlik cheklangan" taniqlik belgilarini o'rnatilishini joriy etish;

YHQlarining "Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi" 11.4 bandiga "Tezlik cheklangan" taniqlik belgilari o'rnatilgan transport vositalariga "Faqat chapga burilish yoki qayrilib olish uchun chetki bo'lakni egallashga ruxsat etiladi" jumlasini qo'shishni;

YHQlarning 16.2 bandiga qo'shimcha "Agar tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyi oldida transport vositasi sekinlashtirilsa haydovchi darhol ogohlantiruvchi falokat ishorasini yokishi kerak" jumlasini qo'shishni;

YHQlarning 17.5 bandiga qo'shimcha "Temir yo'l kesishmasida majburan to'xtab qolgan transport vositasining haydovchisi darhol ogohlantiruvchi falokat yorug'lik ishorasini yoqishi", darhol odamlarni tushirish va kesishmani bo'shatish choralarini ko'rishi kerak jumlasini qo'shishni taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi 2013 yil 10 apreldagi 348-sonli qonunining maqsadi, yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolar hayoti va sog'ligi muxofaza etilishi, ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlar, yuridik va jismoniy shahslarning mulki, shuningdek atrof muxit himoya qilinishini ta'minlashdan iborat ekanligi belgilangan.

YHQlarning 7.3. bandida me'yordan ortiqcha tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynalar o'rnatilgan bo'lsa transport vositalaridan foydalanish taqiqlanishi belgilangan. Bundan asosiy maqsad transport vositasi salonidagi haydovchi va yo'lovchilarni DAN hodimlari, videoregistrator va fotoradarlar kuzata olish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Unda o'z-o'zidan savol tug'iladi, - "Nega davlatga belgilangan miqdorda pul to'lash orqali me'yorga bo'ysinmaslik mumkin?". Bu savol ham ayrim munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birgalikda ota - onalarni o'z farzandlaridan ishonchnoma olish tartibini ham qayta ko'rib chiqish vaqti keldi.

References:

1. Akbar S., Mahamatzokir G. Advantages of logistics guarantee system // Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 5. – С. 344-347.
2. Akbar, S., & Mahamatzokir, G. (2019). Advantages of logistics guarantee system. *Бюллетень науки и практики*, 5(5), 344-347.



3. Махамматзокир Тоштемирович Гаффаров, & Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73–78.
4. Гаффаров, М. Т., & ўғли Хомидов, А. А. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73-78.
5. qizi Turg'unova G. A., Ahmadjon o'g'li X. A., Shodmonov S. A. SUYUQ VA GAZ HOLATIDAGI HAMDA CHANG KO'RINISHIDAGI YUKLARNI TASHUVCHI MAXSUS VA GIBRID AVTOMOBILLAR //Conference Zone. – 2022. – С. 287-295.
6. Ahmadjon o'g'li X. A., Shodmonov S. A., qizi Turg'unova G. A. YO 'LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI //Conference Zone. – 2022. – С. 207-214.
7. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова «Тарози тошларининг яратилиш тарихи». Фан ва жамият журналы 2022/3
8. К.А.Турсунметов., Ф.Султонова Физика фанининг шаклланишида Осиё алломаларининг ўрни. Наманган муҳандислик технология институти ФИЗИКА-2022 Форум 3 октябрь 2022 йил
9. Ф.Султонова. Шиша ва унинг яратилиш тарихи. АндМИ Ҳалқаро конференция 2022 йил октябрь
10. Насиров Ильхам Закирович и Рахмонов Хуршидбек Нурмухаммад оглы. (2022). ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ОБРАТНОГО ЗАЖИГАНИЯ В ДВИГАТЕЛЯХ АВТОМОБИЛЕЙ. *Всемирный бюллетень социальных наук*, 12, 63-69. Получено с <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1177>.
11. Насиров Ильхам Закирович и др., (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ СВЕЧИ ЗАЖИГАНИЯ С СОПЛОМ ЛАВАЛЯ. 17(08), 458-467. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6969359> | Опубликовано: 06-08-2022.
12. Шодмонов С. А., Ортиқов, С. С., & Abdiraxmonov, R. A. International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404.
13. Ортиқов Сарвар Саттаралиевич, & Негматов Бекзодбек Баходир Ўғли (2021). АНАЛИЗ ОТКАЗОВ БЕНЗОНАСОСОВ АВТОМОБИЛЕЙ ПРОИЗВОДСТВА АК «УЗАВТО МОТОРС». *Universum: технические науки*, (6-1 (87)), 51-54.
14. Ортиқов Сарвар Саттаралиевич, Джумабаев Алижан Бакишевич. НОРМИРОВАНИЕ РАБОТЫ СЛЕСАРЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ АВТОСЕРВИСА. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI., 14-SON 20.12.2022.
15. Ugli Xomidov, A. A., Shodmonov, S. A., & Qizi Turg'unova, G. A. (2022). Shahar hududidagi yo'lovchilar oqimini aniqlang. *Periodica zamonaviy falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali*, 12, 79-87.
16. Ahmadjon o'g'li X. A., Abduvayitovich S. S. On-Board Computer and Monitoring System //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 9. – С. 64-71.
17. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Abduvayitovich, S. S. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 64-71.



18. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. Journal of new century innovations, 18(5), 109-120.
19. Rafuqjon o'g'li, R. R. (2022, December). TIRSAKLI VALLARNI TAMIRLASH ISTIQBOLLARI. In Conference Zone (pp. 333-342).
20. A Rakhmanov, R Rakhimov, I Nazarov.(2019). URBAN WASTE AS ORGANIC FUEL.Точная наука. УДК: 662.(39),35-37.
21. Rahmatullo. Rahimov.(2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat havfsizligini taminlash uslublarini takomilashtirish uslublari. Международный научно-образовательный электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»,7(35),750-754.
22. ўғли Раҳимов, Р. Р. (2022). ТАШИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 656-663.